

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI QO'LLASHDA CHET EL AMALIYOTI

Sultanova Nasiba Baxtiyarovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani  
21-son DMTT direktori

**Annotatsiya.** Maqolada inklyuziv ta'lim rasmiy ta'limda tushunchasi ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv ta'limni chet el tajribasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

**Аннотация.** Абстрактный. В статье понятие инклюзивного образования в формальном образовании гораздо шире. Это образование в основном работает с детьми с ограниченными возможностями обучения. Предусматривалось предоставить возможности для создания условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста на основе зарубежного опыта инклюзивного образования.

**Abstract.** In the article, the concept of inclusive education in formal education is much broader. This education mainly works with children with learning disabilities. It was envisaged to provide opportunities to create conditions for all-round intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children based on foreign experience of inclusive education.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, deklaratsiya, uydagi ta'lim, imkoniyati cheklanganlar, integratsion ta'lim, imkoniyatlar, maktabgacha ta'lim, jismoniy rivojlanish.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, декларация, домашнее образование, инвалидность, интегрированное образование, возможности, дошкольное образование, физическое развитие.

**Key words:** inclusive education, declaration, home education, disabled, integrated education, opportunities, preschool education, physical development.

O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishining asosiy bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda bolalarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli **inklyuziv ta'lim** — ya'ni barcha bolalar, shu jumladan nogironligi yoki rivojlanishida maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'shib o'qitish tizimi — maktabgacha ta'limda dolzarb yo'nalish sifatida qaraladi. Chet el tajribasi ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun maxsus tayyorgarlik, pedagogik metodlar va jamiyat hamkorligi zarur. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy

etishdagi xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMTning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalari ish-tirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Ispaniya** — Alvaro Marchesi Uyastresning tahlili asosida Ispaniyadagi inklyuziv ta'lim xususida quyidagi ma'lumotlar olindi: Ispaniya hukumati tomonidan 1985 yilda rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni ta'lim sohasida integratsiya qilishni nazarda tutadigan loyihani ma'lum qildi. Loyiha 8 yillik muddatga mo'ljallanib, unda ikkita maqsad ko'zlanadi:

➤ Maxsus muassasalarda ta'lim olayotgan bolalarni umumta'lim maktablariga qabul qilish uchun imkoniyat yaratish;

➤ Sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalarni sifatli ta'lim-tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

**Inklyuzivlik** – inglizcha so'z bo'lib, inklusif – qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

**Inklyuziv ta'lim** – tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlari, individual psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir<sup>3</sup>. Shuningdek, inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

***Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?***

➤ o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi  
➤ mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

➤ dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

➤ o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

➤ o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

➤ ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

➤ yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

**AQShda inklyuziv ta'lim tajribasi** -AQShda nogironlarga bo'lgan e'tibor faqat ta'lim tizimida emas. Bu yerda barcha jamoat binolari, yo'llar, transport vositalari va boshqa jamoatchilik inshootlari nogironlar foydalana olishi uchun maxsus vosita va sharoitlar bilan ta'minlangan. Masalan, har bir jamoat avtobusida nogiron aravachalari turishi uchun maxsus joy ajratilgan. Ularning avtobusga chiqishi va tushishini ta'minlash uchun ham transport maxsus texnologiya bilan jihozlangan. Bu kabi sharoitlarni binolarda va boshqa transport vositalarida ham ko'rish mumkin. Bularning barchasi mamlakatdagi nogironlarning jamiyatda barcha qatori teng huquqli yashashlarini ta'minlash maqsadida federal qonunlar bilan amalga oshiriladi. Biz bu maqolada nogironlarga bo'lgan e'tibor

mavzusining ta'lim tizimidagi tadrijiy rivoji haqida qisqacha ma'lumot berdik. AQSh ta'lim tizimida umumiy ta'limdan farqli shu kabi boshqa maxsus ta'lim turlariga ham ruxsat va imkoniyatlar berilgan. Masalan, amerikaliklar, agar xohlasa, farzandlarini umuman maktablarga bermasdan, ularga o'zlari uyda ta'lim berishlari mumkin. Qonunan ruxsat berilgan va tan olingan bu ta'lim turi "Uy maktabi" deya ataladi. Bu haqda batafsil kelgusida bayon qilamiz.

**Vyetnamdagi-** inklyuziv ta'lim tizimini o'rganish shuni ma'lum qiladiki, bu erda ikkita holat kuzatiladi. Ta'lim vazirligi tomonidan Davlat fan va ta'lim institutida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limning samarali natijalarini aniqlash uchun ish olib bordi (YUNESKO hisoboti, 1996 yil).

**Avstriya** -Avstriyada 1945 yildan boshlab nogiron bolalarni differensial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lim tizimida barcha turdagi nuqsonli bolalar o'qitila boshlandi. Ammo 1980 yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitilishini talab qilib chiqdilar. Bitta maxsus ehtiyojli o'quvchi ikkita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfdagi ikkita o'qituvchi ishlab, ulardan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo'lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o'qitiladi.

**Inklyuziv ta'lim Italiya tajribasi-** Italiya kabi maktabgacha ta'lim tashkilotlar alohida ehtiyojli bolalarni MTTlariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktabgacha ta'lim tashkilotlarning yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim xizmatini ko'rsatish mas'uliyatidan ozod etilmaydi.

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,** maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyalash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go'zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. *Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri*, 1(1), 350-352.
8. N.B.GOIPOVA "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" Namangan – 2024
9. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramog'ida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, 6(1), 280-286.
10. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertatsiya " Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash"2022 y.
11. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.